

## Mahallada oilaviy muammomolar, qaynona-kelin munosabatlari

Davlatimiz tomonidan tomonidan oilalarni mustahkamlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Radio, televideniya va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali bu borada turli tuman ko'rsatuv, eshittirish, maqola va hokazolarni e'lon qilish orqali ma'naviy ishlar olib borilmoqda. E'tiboringizni yana bir narsaga qaratmoqni lozim ko'rdik. U ham bo'lsa, ba'zi oilalardagi kelishmovchilikning tilni tiymaslik oqibatida kelib chiqayotganidir. Bugun Yer resurslarini boshqarish fakultetiga birlashtirilgan Mirzo Ulug'bek nomidagi "Asaka" mahallasida "Oilalarda qaynona-kelin munosabatlari" mavzusida mahalla istiqomat qilayotgan qaynona-kelinlar o'rtasida davra suhbat bo'lib o'tdi. Unda Yer resurslarini boshqarish fakultetidan Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova, "Erda foydalanish" kafedrasida katta o'qituvchisi Z.Xafizova ma'ruzachi sifatida ishtirok etishdi. Ma'lumki, parokanda bo'layotgan oilalarimizda sodir bo'layotgan janjal-to'polonlarning aksariyati qaynona-kelin mojarolaridan kelib chiqmoqda. Oilaning mustahkamligi jamiyat uchun muhim sanaladi, chunki aynan mana shu oilada jamiyat a'zosi sifatida farzand tarbiya topadi.



Ikki yoshning birga umr yo'llarini bog'lashi bu oilaning asosi hisoblanadi. Ularning bir-birlarini tushunib, o'zaro hamjihat bo'lib harakat qilishi, kelajak vorislarini dunyoga keltirib, jamiyatga, insonlarga nafi tegadigan shaxs qilib tarbiya qilishlari oilada sog'lom muhitning yuzaga kelishiga, hamda baxtivorlik tushunchasiga omil bo'ladi. Oilaning mustahkam bo'lishi nafaqat er va xotinga, balki qaynona va qaynotalarga ham bog'liq tomonlari bor. Qaynona-kelin muammosi xaqida juda ko'p eshitgansiz, hatto ular sabab oilalarning buzilishiga ham guvoh bo'lgandirsiz. Qaynona va kelinlarimiz birbirlariga nisbatan bag'rikeng, sabrli bo'lsalar ayni muddao bo'lardi. Ayrim qaynonalar kelinlariga zulm qilishlari ham hech kimga sir emas. Ba'zi o'ziga haddan ziyoda bino qo'ygan qaynonalar o'zlarini bamisoli bir qirolichadek, kelinlarini esa cho'ridek hisob qiladilar. Arzimas sabablar bilan kelinlarini turtkilayveradilar. Kelin sal uxlab qolsa, yoki qaynonaning oyoq kiyimini to'g'rilab qo'ymagan bo'lsa, yoki hadeganda bo'yida bo'lavermasa, boshidan tegirmon toshi yurgizadilar.



Ba'zi qaynonalar, kelinning uyidan vaqti-vaqti bilan sara-sara narsalar kelib turmasa, sarpo va mebellari yaxshi bo'lmasa keliniga kun bermaydi. Hammaga kelinini yomonlab yuradi, quda-ndalarini nazari "past" ekanidan noliydi. Keliniga qo'pol muomala qiladi. Dilini og'ritadi. Bu ham til ofatlariga kiradi. Qaynonalik ham ma'suliyat, o'zga bir oila muhitida tarbiya topgan qizni o'z qizidek qabul qilish, unga g'amxo'rlik ko'rsatish ham katta fidoiylik talab qiladi. Qaynona yuragining bir parchasini o'zga xonadondan kelgan bir qizga tortiq qiladi. Kelin ham kimningdir ko'z qorachig'iday, asrab, avaylab katta qilgan dilbandi hisoblanad. U shu xonadon davomchilari bo'lgan vorislarni dunyoga keltiradi... Atrofimizda qaynona-kelinlarning yaxshisi ham yomoni ham bor buni inkor qilish qiyin. Qaynona-kelin muammosi haqida gap ketganda aybni bir kishidan izlash noto'g'ri, albatta. Ammo kimningdir yaxshi munosabatini su'istemol qilib yomonga aylanishiga o'zimiz sababchi bo'lib qolishimiz mumkin. Shuningdek mahalladagi eng yaxshi qaynonaga, kelinga va eng yaxshi oqila qizga "Asaka" mahallasi tomonidan tashakkurnoma va sovg'alar topshirildi. Alloh taolo barchalarimizning oilalarimizga tinchlik-xotirjamlik va baxtu saodatni nasib etsin.

**YERB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat eshova axboroti**

**TIQXMMI matbuot xizmati**